Sobiq ittifoq mamlakatlarida yashirin iqtisodiyotga oid dastlabki ilmiy tadqiqotlar G. Grossmanning "ikkinchi iqtisodiyot" (yashirin iqtisodiyot) konsepsiyasiga bag'ishlangan ishlari bilan bog'liq holda shakllandi<sup>1</sup>. Uning tadqiqotlarida yashirin iqtisodiyot shaxsiy daromadni maksimal darajada oshirish maqsadida rasmiy himoya mexanizmlarini norasmiy risk va imkoniyatlar bilan almashtirishga qaratilgan ongli iqtisodiy xatti-harakat sifatida tavsiflanadi<sup>2</sup>. Tadqiqotlarda yashirin iqtisodiy faoliyat I. Stalin davrida rasman mavjud emas deb hisoblangan bo'lsa-da, N. Xrushchov davridan boshlab asta-sekin shakllanib, keyingi yillarda yanada rivojlangani ilmiy manbalarda qayd etiladi<sup>3</sup>.

S. Sampson Sovet Ittifoqidagi yashirin iqtisodiyotning o'ziga xos jihatlarini rasmiy iqtisodiyot uchun bir vaqtning o'zida "moslashtiruvchi" va "zaiflashtiruvchi" mexanizm sifatida tavsiflaydi. Bir tomondan, davlat nazoratining yuqori darajasi ishlab chiqarish siklining buzilishiga va resurslarning samarasiz taqsimlanishiga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, iqtisodiy subyektlar yuqori byurokratik to'siqlarni chetlab o'tish maqsadida ta'minot zanjirining ayrim bo'g'inlarini norasmiylashtirishga yoki muqobil xarid kanallaridan foydalanishga majbur bo'lgan.

Shuningdek, S. Sampson rasmiy iqtisodiyotdagi tizimli kamchiliklarni davlat boshqaruvi samaradorligi bilan bog'laydi. U yuqori lavozimli mansabdor shaxslar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida kuzatilgan institutsional zaifliklar nazorat mexanizmlarining sustlashishiga olib kelganini ta'kidlaydi. Natijada, 1970-yillarning oxirlariga kelib, sobiq ittifoq mamlakatlarida aholining muayyan qismi o'z daromadlarining sezilarli ulushini norasmiy iqtisodiy faoliyat orqali shakllantirganligi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan<sup>4</sup>.

M. Rutgaizer sobiq ittifoq mamlakatlarida yashirin iqtisodiyotning kengayishini 1950–1970-yillar oralig'ida qat'iy avtoritar boshqaruvdan nisbatan moslashuvchanroq tizimga o'tish jarayoni bilan bog'laydi<sup>5</sup>.

Ushbu jarayon iqtisodiy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish va yashirin iqtisodiyotga nisbatan yangi yondashuvlarni shakllantirishni taqozo etdi. Amalga oshirilgan islohotlar bosqichma-bosqich, konstruktiv va cheklovchi yondashuvlarni uyg'unlashtirgan holda joriy etildi.

Birinchi yondashuv ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida kooperativlar va lizing mexanizmlarini joriy etish orqali norasmiy faoliyatni bosqichma-bosqich qonuniylashtirishni nazarda tutdi. Ushbu islohotlar, avvalo, norasmiylik darajasi yuqori bo'lgan xizmat ko'rsatish sohasida amalga oshirildi.

1 Grossman, G. (1977). *The Second Economy of the USSR*. Problems of Communism, 25–40.

2 Grossman, G. (1982). *The Shadow Economy in the Socialist Sector of the USSR*. The CMEA Five-Year Plan.

3 Rutgaizer, M. (1992). *The Shadow Economy in the USSR*. Berkeley-Duke Occasional Papers on the Second Economy in the USSR.

4 Sampson, S. (1987). *The Second Economy of the Soviet Union and Eastern Europe*. The Annals of the American Academy of Political and Social Science, 493, 120–136.

5 Rutgaizer, M. (1992). *The Shadow Economy in the USSR*. Berkeley-Duke Occasional Papers on the Second Economy in the USSR.



Ikkinchi yondashuv esa iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish, moliyaviy intizomni mustahkamlash va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratildi. Bu chora-tadbirlar ishlab chiqarish yo'qotishlarini kamaytirish hamda iqtisodiy tizimning umumiy samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

1985-yilda sobiq Ittifoq statistika organlari tomonidan norasmiy va noqonuniy daromadlar olish sabablarini aniqlash maqsadida aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 51 foizi iste'mol tovarlari yetishmovchiligi hamda davlat tizimidagi yuqori korrupsiya darajasini asosiy omillar sifatida ko'rsatgan. Aholi orasida bunday qarashlarning shakllanishi, asosan, fundamental iqtisodiy qonunlarning buzilishi, iste'mol bozorida talab va taklif mexanizmlarining yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi, hukumat tomonidan tovar va mehnat bozorini tartibga solishda iqtisodiy rag'batlarga nisbatan ma'muriy usullarning ustun qo'llanilishi hamda bozorda sun'iy taqchillik yuzaga kelishi bilan izohlanadi<sup>6</sup>.

Shuningdek, B. Kim va Y. Shida tomonidan 1965–1989-yillar oralig'ida ushbu mamlakatlar doirasida o'tkazilgan tadqiqotda iqtisodiyotdagi tizimli nomuvofiqliklar bilan iste'mol tovarlari taqchilligi o'rtasida sezilarli ijobiy bog'liqlik mavjudligi aniqlangan. Mazkur holat markazlashgan rejali iqtisodiyot sharoitida muvofiqlashtirish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ishlab chiqaruvchilarning haqiqiy ishlab chiqarish quvvatlari va bozor ehtiyojlari to'g'risida to'liq axborotga ega emasligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, tadqiqotda ekzogen omillar, jumladan, iqtisodiy, boshqaruv hamda ijtimoiy-demografik omillarning ta'siri ham muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi<sup>7</sup>.

1991-yilda Sobiq Sovet Ittifoqining parchalanganidan so'ng, ayrim respublikalar rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga nisbatan muvaffaqiyatli o'tishga erishgan bo'lsa, boshqa mamlakatlarda esa xususiy sektor ustidan kuchli siyosiy va institutsional nazorat mexanizmlari ma'lum darajada saqlanib qoldi. Ayrim holatlarda hukumatlar yuqori soliq tushumlarini shakllantirgan bo'lsalar-da, ushbu resurslarning samarali qayta taqsimlanishi va biznes hamda aholi uchun muhim bo'lgan jamoat tovarlari bilan ta'minlash darajasi yetarli bo'lmagan. Natijada, iqtisodiy subyektlar faoliyatida norasmiy mexanizmlarning jozibadorligi saqlanib qoldi<sup>8</sup>.

Bundan tashqari, D. Kaufmann va A. Kaliberda tomonidan sobiq ittifoq mamlakatlari bo'yicha 1989–1995-yillarni qamrab olgan tadqiqotlarda haddan tashqari yuqori ma'muriy yuk (jumladan, soliq yuki, tartibga solishning umumiy darajasi va korrupsiya omili), jamoat tovarlarining yetishmasligi, shuningdek, institutsional muhitning takomillashmaganligi rasmiy sektorda faoliyat yuritishni biznes subyektlari uchun nisbatan murakkablashtirgani qayd etiladi<sup>9</sup>. Ushbu sharoitda ayrim firmalar davlat xizmatlaridan to'liq foydalana olmasalar-da, norasmiy sektorga o'tish orqali iqtisodiy faoliyatini davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lgan. Bu holat yashirin iqtisodiy faoliyatni qisqa muddatda nisbatan kam xavfli va iqtisodiy jihatdan ma'qul variant sifatida namoyon bo'lishiga olib kelgan.

M. Lako tomonidan O'zbekiston va boshqa sobiq ittifoq mamlakatlarini qamrab olgan 1989–1995-yillar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda yuqoridagi omillarga qo'shimcha ravishda, mustaqillikning dastlabki yillarida xususiylashtirish islohotlarining bosqichma-bosqich amalga oshirilgani, biznes muhiti va ishlab chiqarish zanjirlarida muayyan uzilishlar yuzaga kelganini ta'kidlaydi. Natijada, xususiy ishlab chiqarishning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi norasmiy ishlab chiqarishga nisbatan pastroq bo'lib qolgan<sup>10</sup>.

O'zbekistonda va boshqa o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida yashirin iqtisodiyot masalalariga bag'ishlangan 1990–2001-yillarni qamrab olgan nisbatan yangi tadqiqotlar F. Shneyder tomonidan amalga oshirilgan. Uning empirik tahliliga ko'ra, yuqori soliq va ijtimoiy to'lovlar yuki rasmiy bandlikni kengaytirishda muayyan cheklovlarni yuzaga keltirgan. Shu bilan birga, norasmiy bandlikdan foydalanish qisqa muddatli iqtisodiy foyda va kelajakdagi jamg'arish imkoniyatlarini oshirgani sababli ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun nisbatan samaraliroq variant sifatida baholangan<sup>11</sup>. Tadqiqot natijalari shuningdek, o'tish davri iqtisodiyotlarida korrupsiya darajasi, huquqiy me'yorlarning ijrosi va teng raqobat sharoitlarining yetarli darajada ta'minlanmaganligi norasmiy iqtisodiy faoliyatning kengayishiga turtki bo'lganini ko'rsatadi.

Mazkur davrlarda O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot darajasini baholash bo'yicha turli ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo'lib, ularning asosiy natijalari umumlashtirilgan holda keltiriladi (1-rasm).

6 Trembl, V., & Alexeev, M. (1993). *The Second Economy and the Destabilizing Effect of Its Growth on the State Economy in the Soviet Union: 1965–1989*. Berkeley–Duke Occasional Papers on the Second Economy in the USSR, No. 36.


7 Kim, B., & Shida, Y. (2014). *Shortages and the Informal Economy in the Soviet Republics: 1965–1989*. The Russian Research Center (RRC) Working Paper Series, No. 43, 1–29.

8 Johnson, S., Kaufmann, D., & Shleifer, A. (1997). *The Unofficial Economy in Transition*. Brookings Papers on Economic Activity, No. 2, 159–239.

9 Kaufmann, D., & Kaliberda, A. (1996). *Integrating the Unofficial Economy into the Dynamics of Post-Socialist Economies: A Framework of Analysis and Evidence*. Policy Research Working Paper. World Bank Group.

10 Lackó, M. (2000). *Hidden Economy – An Unknown Quantity? Comparative Analysis of Hidden Economies in Transition Countries, 1989–1995*. Economics of Transition, 8(1), 117–149.

11 Schneider, F. (2002). The Size and Development of the Shadow Economies of 22 Transition and 21 OECD Countries. IZA Discussion Paper, 514.



1-rasm. O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi bo'yicha tadqiqot natijalarining qiyosiy tahlili<sup>12</sup>

Yuqoridagi rasmda O'zbekistonda 1965–2001-yillar oralig'ida yashirin iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi bo'yicha amalga oshirilgan asosiy to'rtta ilmiy tadqiqot natijalari qiyosiy tarzda keltirilgan. Xususan, B. Kim va Y. Shida tomonidan tizimli tenglamalar modeli (Structural Equation Model) asosida amalga oshirilgan hisob-kitoblarga ko'ra, 1965–1989-yillar davomida mamlakatda yashirin iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi o'rtacha 26 foizni tashkil etgan. Tadqiqotchilar yashirin iqtisodiyot rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida institutsional omillarni (davlat institutlari sifati, ijtimoiy tovarlarning yetarli darajada ta'minlanmaganligi, korrupsiya darajasi va boshqalar), shuningdek, iste'mol tovarlari taqchilligi hamda yuqori soliq yukini ko'rsatib o'tganlar<sup>13</sup>.

Shuningdek, S. Jonson va hammualiflar tomonidan elektr energiyasi iste'moli usuliga asoslangan baholash natijalariga ko'ra, O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi 1989–1995-yillarda o'rtacha 10 foizni tashkil etgani aniqlangan. Biroq mazkur metod ayrim cheklavlarga ega bo'lgani sababli iqtisodiy jarayonlarni to'liq qamrab olish imkoniyatiga ega emasligi ta'kidlanadi. M. Lako esa S. Jonson va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvdagi kamchiliklarni hisobga olgan holda, uy xo'jaliklarining elektr energiyasi iste'moli modelidan foydalangan va ushbu davrda O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot hajmi o'rtacha 24 foizni tashkil etganini aniqlagan<sup>14</sup>.

Garchi ushbu ikki tadqiqot natijalari yashirin iqtisodiyot ko'lami bo'yicha turlicha baholarni taqdim etgan bo'lsa-da, unga sabab bo'luvchi omillar yuzasidan o'xshash xulosalarga kelinadi. Xususan, (1) iqtisodiyotning davlat tomonidan me'yoridan ortiqcha tartibga solinishi hamda tartibga soluvchi organlarga yuqori darajadagi diskretion vakolatlarining berilishi; (2) yuqori soliq yuki, jumladan, soliq stavkalari va soliq ma'muriyatchiligi darajasi; (3) institutsional muhitning yetarli darajada rivojlanmaganligi yashirin iqtisodiyot ko'laminin kengayishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida qayd etiladi<sup>15</sup>.

F. Shneyder tomonidan nisbatan yangi va mukammal metodologiya sifatida baholanadigan dinamik ko'p ko'rsatkichli va ko'p sababli MIMIC modeli (Multiple Indicator Multiple Cause Model) asosida olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, 1990–2001-yillar oralig'ida O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi o'rtacha 30 foizni tashkil etgan. Tadqiqotda yashirin iqtisodiyotning shakllanishiga sabab bo'luvchi omillar sifatida S. Jonson va hammualiflar hamda M. Lako tomonidan ilgari surilgan institutsional va fiskal omillar tasdiqlangan<sup>16</sup>.

O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha ilmiy izlanishlar 2000-yillardan so'ng ma'lum darajada faolligini yo'qotgan bo'lsa-da, 2018-yildan boshlab iqtisodiy va soliq islohotlarining yangi

<sup>12</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi.

<sup>13</sup> Kim, B., & Shida, Y. (2014). Shortages and the Informal Economy In the Soviet Republics: 1965-1989. The Russian research center, RRC Working Paper Series, 43, 1-29.

<sup>14</sup> Johnson, S., Kaufmann, D., & Shleifer, A. (1997). *The Unofficial Economy in Transition*. Brookings Papers on Economic Activity, No. 2, 159–239.

<sup>15</sup> Lackó, M. (2000). *Hidden Economy – An Unknown Quantity? Comparative Analysis of Hidden Economies in Transition Countries, 1989–1995*. Economics of Transition, 8(1), 117–149.

<sup>16</sup> Schneider, F. (2002). The Size and Development of the Shadow Economies of 22 Transition and 21 OECD Countries. IZA Discussion Paper, 514.



bosqichi boshlanishi bilan mazkur masalaga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratila boshlandi. Shu munosabat bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) hamkorligida mamlakatda yashirin iqtisodiyot hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha keng qamrovli tadqiqot o'tkazildi. Ushbu tadqiqot natijalari 1-jadvalda umumlashtirilgan holda keltirilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, yashirin iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi turli metodlar asosida baholangan bo'lib, baholash usullariga qarab 2000–2018-yillar oralig'ida turlicha dinamikani namoyon etadi. Biroq aksariyat baholashlar 2000-yillardan keyin yashirin iqtisodiyot ko'lamining sezilarli darajada kengayganini va 2018-yilda uning YAIMdagi ulushi o'rtacha 45–52 foiz oralig'ida bo'lganini ko'rsatadi.

Batafsil tahlil shuni ko'rsatadiki, 2000-yillarning birinchi yarmida yashirin iqtisodiyot ko'lamida nisbatan o'sish kuzatilgan bo'lib, bu holat iqtisodiyotni bosqichma-bosqich liberallashtirish jarayonlarining boshlanishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi shirkatlarining fermer va dehqon xo'jaliklariga transformatsiya qilinishi, 2001-yilda ikki palatali parlamentning tashkil etilishi hamda 2001–2002-yillarda valyuta bozorining bosqichma-bosqich erkinlashtirilishi iqtisodiy faollikni oshirdi. Natijada, 1999–2002-yillar davomida yashirin iqtisodiyot ko'lamining o'sish sur'atlari sekinlashib, 2000-yildagi 23 foiz ko'rsatkich 2002-yilda 22 foizgacha qisqargani qayd etiladi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi (turli metodlar bo'yicha), %<sup>17</sup>

| Yillar | Gutmann metodi<br>(modifikatsiyalangan naqd<br>pul–depozit nisbati metodi) | Ko'zgu metodi (naqd<br>pul talab qilish<br>metodi) | Tanzi metodi (naqd<br>pul talab qilish<br>metodi) | MIMIC metodi<br>(tizimli tenglama<br>usuli) |
|--------|----------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------|---------------------------------------------------|---------------------------------------------|
| 2000   | 9,3                                                                        | 38,6                                               | 35,3                                              | 23,0                                        |
| 2001   | 10,2                                                                       | 39,2                                               | 37,2                                              | 23,0                                        |
| 2002   | -6,9                                                                       | 47,9                                               | 39,9                                              | 22,0                                        |
| 2003   | 1,8                                                                        | 42,5                                               | 41,6                                              | 23,0                                        |
| 2004   | 8,5                                                                        | 42,2                                               | 42,2                                              | 24,0                                        |
| 2005   | 23,9                                                                       | 41,0                                               | 42,9                                              | 26,0                                        |
| 2006   | 27,4                                                                       | 43,0                                               | 40,0                                              | 27,0                                        |
| 2007   | 21,6                                                                       | 48,7                                               | 35,7                                              | 28,0                                        |
| 2008   | 29,4                                                                       | 50,1                                               | 37,5                                              | 31,0                                        |
| 2009   | 33,7                                                                       | 51,2                                               | 40,6                                              | 32,0                                        |
| 2010   | 37,7                                                                       | 52,5                                               | 41,4                                              | 35,0                                        |
| 2011   | 35,8                                                                       | 55,4                                               | 41,6                                              | 37,0                                        |
| 2012   | 31,3                                                                       | 64,0                                               | 47,1                                              | 38,0                                        |
| 2013   | 35,0                                                                       | 102,9*                                             | 48,0                                              | 41,0                                        |
| 2014   | 38,6                                                                       | 58,6                                               | 42,6                                              | 44,0                                        |
| 2015   | 40,7                                                                       | 55,7                                               | 38,4                                              | 45,0                                        |
| 2016   | 39,2                                                                       | 59,0                                               | 38,4                                              | 48,0                                        |
| 2017   | 56,9                                                                       | 50,5                                               | 41,6                                              | 52,0                                        |
| 2018   | 48,0                                                                       | 52,1                                               | 44,6                                              | 52,0                                        |

Biroq keyingi davrlarda amalga oshirilgan iqtisodiy siyosat natijasida bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyillaridan ayrimlarining izchil tatbiq etilmasligi 2003–2017-yillar davomida yashirin iqtisodiyotning YAIMdagi ulushining bosqichma-bosqich 23 foizdan 52 foizgacha oshishiga olib kelgan. Mazkur jarayon institutsional muhitning yetarli darajada takomillashmaganligi hamda iqtisodiy tartibga solish mexanizmlarining samaradorligi bilan bevosita bog'liq holda namoyon bo'lgan.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida, so'nggi 15 yil ichida ilk bor yashirin iqtisodiyot hajmida o'sish kuzatilmadi. Aksincha, 2018-yilda uning YAIMdagi ulushi 51,7 foizgacha qisqargani qayd etildi. Ushbu ijobiy tendensiya 2017-yildan boshlab jamiyatning barcha sohalarida iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan islohotlar boshlanganligi bilan izohlanadi.

Mazkur islohotlar, avvalo, davlatning iqtisodiyotga bevosita aralashuvini qisqartirish, soliq yukini optimallashtirish, davlat xizmatlari sifatini oshirish va ularni raqamlashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash,

17 Программа развития Организации Объединённых. Наций Теневая экономика в Узбекистане: причины, масштабы и пути сокращения. Аналитический доклад. ПРООН, 2018 ([www.undp.org](http://www.undp.org)).



shuningdek, davlat va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilik ishtirokini kuchaytirishga qaratildi. Natijada ushbu chora-tadbirlar iqtisodiyotni erkinlashtirish, biznes subyektlari uchun qulay tadbirkorlik muhitini shakllantirish hamda rasmiy iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishga xizmat qildi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda yashirin iqtisodiyotning dinamikasini hamda uning soliq siyosati va institutsional islohotlar bilan o'zaro bog'liqligini tahlil qilish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida asosan statistik, dinamik, qiyosiy va sabab–oqibatli tahlil usullaridan foydalanildi.

Statistik tahlil yordamida yashirin iqtisodiyotga oid ko'rsatkichlar tizimlashtirildi hamda ularning vaqt bo'yicha o'zgarishlari o'rganildi. Dinamik tahlil usuli orqali yashirin iqtisodiyot ko'lamidagi o'sish va qisqarish tendensiyalari, shuningdek, ularning bosqichlari aniqlab berildi. Qiyosiy tahlil asosida esa turli davrlar va iqtisodiy sektorlar kesimida yashirin iqtisodiyot darajasidagi farqlar baholandi.

Sabab–oqibatli tahlil usuli soliq yukining darajasi, soliq stavkalaridagi o'zgarishlar, soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish jarayoni hamda rag'batlantiruvchi mexanizmlarning joriy etilishi yashirin iqtisodiyot ko'lamiga qanday ta'sir ko'rsatganini aniqlashga xizmat qildi.


Shuningdek, tizimli yondashuv asosida yashirin iqtisodiyot iqtisodiy tizimning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralib, uni soliq siyosati va institutsional islohotlar bilan o'zaro bog'liq holda kompleks baholash ta'minlandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilgan soliq islohotlarining yashirin iqtisodiyot dinamikasiga ta'sirini aniqlash maqsadida qator qiyosiy va dinamik tahlillar o'tkazildi. Tahlil milliy statistika ma'lumotlari hamda soliq siyosatida amalga oshirilgan institutsional o'zgarishlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga qaratildi.

Mazkur tahlil doirasida soliq stavkalarining pasaytirilishi, soliq yukining optimallashtirilishi, soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish hamda iqtisodiy faoliyatni legallashtirishga qaratilgan rag'batlantiruvchi mexanizmlarning joriy etilishi yashirin iqtisodiyot ko'rsatkichlariga qanday ta'sir ko'rsatgani yillar va iqtisodiy sektorlar kesimida baholandi. Ushbu jarayonda fiskal siyosatdagi o'zgarishlarning real iqtisodiy natijalarga ta'siri empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, soliq islohotlari doirasida amalga oshirilgan institutsional va tashkiliy chora-tadbirlar yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirish, rasmiy iqtisodiy faoliyatni kengaytirish hamda tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratishda muhim rol o'ynagan. Ushbu yondashuv soliq islohotlarining samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash hamda yashirin iqtisodiyotga qarshi davlat siyosatining natijadorligini baholash imkonini beradi (2-rasm).



2-rasm. O'zbekistonda kuzatilmaydigan (yashirin) iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi<sup>18</sup>

18 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.



Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2017-yildan boshlab O'zbekistonda soliq siyosati sohasida qator strategik islohotlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, umumiy yashirin iqtisodiyot darajasi 2017-yilda 45,6 foizdan, 2018-yilda 41,6 foizga, keyinchalik 2024-yilda 34,3 foizgacha qisqargan. Mazkur davrda soliq yuki va yashirin iqtisodiyot ulushi o'rtasida pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Ushbu ijobiy dinamika, avvalo, soliq stavkalaridagi o'zgarishlar, soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish hamda elektron cheklar va keshbek tizimining joriy etilishi bilan izohlanadi.

2019-yil soliq siyosatida muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Xususan, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) stavkasi 20 foizdan 15 foizga pasaytirildi va ushbu o'zgarish 2019-yil 1-oktabrdan kuchga kirdi. Bu chora soliq yukini kamaytirish hamda tovarlar va xizmatlar bozorida raqobatbardosh muhitni shakllantirishga qaratildi. QQS stavkasining pasaytirilishi xususiy sektor va aholi tomonidan rasmiy chek talab qilishni rag'batlantirdi, natijada rasmiy savdo aylanmasi kengaydi va soliq tushumlari oshishi uchun qulay sharoit yaratildi.

2020-yildan boshlab daromad solig'i va ijtimoiy soliq bo'yicha 12 foizlik yagona stavkaning joriy etilishi soliq tizimini soddalashtirdi hamda mehnat bozorida bevosita soliq yukini yengillashtirdi. Ushbu islohot rasmiy bandlikni kengaytirish va soliq to'lovchilarni legallashtirishga jalb etishni osonlashtirdi. Natijada, soliq tushumlarining barqaror o'sishi bilan bir qatorda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga erishildi.

2022-yildan boshlab elektron hisob-fakturalar va onlayn nazorat-kassa mashinalari (ONKM) tizimining joriy etilishi soliq ma'muriyatchiligini modernizatsiya qilishda muhim bosqich bo'ldi. Mazkur raqamlashtirish choralari soliq organlariga iqtisodiy faoliyatni elektron cheklar va hisob-fakturalar orqali avtomatik kuzatish, soliq hisobotlarini elektron shaklda yuritish hamda hisob-kitoblarni ustidan samarali nazorat o'rnatish imkonini berdi. 2024-yilda elektron hisob-fakturalar orqali savdo aylanmasining sezilarli qismi qayd etilishi va onlayn kassa tizimlari orqali cheklar avtomatik uzatilishi soliq ma'muriyati samaradorligini yanada oshirdi hamda yashirin iqtisodiyot ulushining qisqarishiga xizmat qildi. Jumladan, 2023-yilda elektron cheklar asosida avtomatik hisoblangan keshbek to'lovlari katta hajmda amalga oshirildi.

2023-yildan boshlab joriy etilgan ijtimoiy keshbek tizimi ham muhim rag'batlantiruvchi mexanizmga aylandi. Ushbu tizim doirasida iste'molchilarga xaridlar bo'yicha QQSning 12 foiz qismi qaytarilishi yo'lga qo'yildi. Natijada, soliq adolati mustahkamlanib, rasmiy chek talab qilish darajasi oshdi va yashirin iqtisodiy faoliyatning legallashtirishiga qo'shimcha turtki berildi.

Sektorlar kesimida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida yashirin iqtisodiyot ulushi 2017-yilda 68,8 foizni, 2024-yilda esa 63,6 foizni tashkil etgan. Ushbu sohada yashirin iqtisodiyot ulushining yuqoriroq darajada saqlanib qolishi soha xususiyatlari hamda mavjud soliq imtiyozlari bilan izohlanadi. Biroq umumiy pasayish tendensiyasi boshqa tarmoqlarda, xususan, sanoat, xizmatlar va qurilish sohalarida aniq namoyon bo'lgan.

Xususan, sanoat sohasida yashirin iqtisodiyot ulushi 2017-yildagi 27,6 foizdan 2024-yilda 11 foizgacha qisqargan bo'lib, bu iqtisodiy faoliyatning rasmiy sektorga o'tishi va soliq yukining optimallashtirilishi bilan bog'liqdir. Xizmatlar sohasida ushbu ko'rsatkich 2017-yilda 50 foizdan 2024-yilda 38,4 foizgacha, qurilish sohasida esa 51,6 foizdan 36,3 foizgacha kamaygan. Ushbu natijalar soliq siyosatidagi islohotlar va raqamlashtirish choralari iqtisodiy faoliyatni legallashtirishga sezilarli ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilgan soliq islohotlari, jumladan, QQS stavkasining bosqichma-bosqich pasaytirilishi, daromad va ijtimoiy soliq stavkalarining optimallashtirilishi, elektron hisob-fakturalar va onlayn kassa tizimlarining joriy etilishi hamda ijtimoiy keshbek mexanizmlarining tatbiq etilishi soliq yuki va yashirin iqtisodiyot ulushining qisqarishiga salmoqli ta'sir ko'rsatdi. Ushbu islohotlar nafaqat umumiy darajada, balki alohida sektorlar kesimida ham soliq siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotning rivojlanishi 1960-yillardan buyon turli tarixiy bosqichlar va institutsional transformatsiyalar bilan uzviy bog'liq bo'lib kelgan. Markazlashgan rejali iqtisodiyot davrida norasmiy iqtisodiy faoliyat, asosan, resurslarning samarasiz taqsimlanishi hamda davlat nazoratining yuqori darajasi bilan izohlangan. Mustaqillikdan keyingi davrda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida xususiyashtirish islohotlarining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, soliq yukining nisbatan yuqoriligi va institutsional muhitning yetarli darajada shakllanmaganligi yashirin iqtisodiyot ko'lamining kengayishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan soliq islohotlari natijasida soliq yukining sezilarli darajada optimallashtirilishi, jumladan, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), daromad solig'i va ijtimoiy soliq stavkalarining pasaytirilishi, soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish, elektron hisob-fakturalarni rasmiylashtirish, onlayn nazorat-kassa mashinalaridan foydalanishning majburiy etib belgilanishi hamda keshbek tizimlarining joriy etilishi iqtisodiy faoliyatni legallashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini sezilarli darajada qisqartirishga xizmat qildi.



Mazkur jarayonlar, ayniqsa, sanoat, xizmatlar va qurilish sohalarida o'zining ijobiy ta'sirini aniq namoyon etdi. Qishloq xo'jaligi sohasining o'ziga xos xususiyatlari va mavjud imtiyozlarini hisobga olgan holda ham, umumiy tendensiya yashirin iqtisodiyot ulushining bosqichma-bosqich kamayib borayotganini ko'rsatadi. Shu tariqa, soliq siyosatini takomillashtirish va institutsional islohotlarni izchil amalga oshirish yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirish, rasmiy iqtisodiy faoliyatni kengaytirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Grossman, G. (1977). The Second Economy of the USSR. Problems of Communism, 25–40.
2. Grossman, G. (1982). The Shadow Economy in the Socialist Sector of the USSR. The CMEA Five-Year Plan.
3. Rutgaizer, M. (1992). The Shadow Economy in the USSR. Berkeley–Duke Occasional Papers on the Second Economy in the USSR.
4. Sampson, S. (1987). The Second Economy of the Soviet Union and Eastern Europe. The Annals of the American Academy of Political and Social Science, 493, 120–136.
5. Trembl, V., & Alexeev, M. (1993). The Second Economy and the Destabilizing Effect of Its Growth on the State Economy in the Soviet Union: 1965–1989. Berkeley–Duke Occasional Papers on the Second Economy in the USSR, No. 36.
6. Kim, B., & Shida, Y. (2014). Shortages and the Informal Economy in the Soviet Republics: 1965–1989. The Russian Research Center (RRC) Working Paper Series, No. 43, 1–29.
7. Johnson, S., Kaufmann, D., & Shleifer, A. (1997). The Unofficial Economy in Transition. Brookings Papers on Economic Activity, No. 2, 159–239.
8. Kaufmann, D., & Kaliberda, A. (1996). Integrating the Unofficial Economy into the Dynamics of Post-Socialist Economies: A Framework of Analysis and Evidence. Policy Research Working Paper, World Bank Group.
9. Lackó, M. (2000). Hidden Economy – An Unknown Quantity? Comparative Analysis of Hidden Economies in Transition Countries, 1989–1995. Economics of Transition, 8(1), 117–149.
10. Schneider, F. (2002). The Size and Development of the Shadow Economies of 22 Transition and 21 OECD Countries. IZA Discussion Paper, No. 514.
11. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (BMTTD). (2018). O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot: sabablari, ko'lam va qisqartirish yo'llari. Analitik ma'ruza. PROON.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 1

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>